

DENOV TUMANIDAGI ILM-MA'RIFATNING YUKSALISHI.**Matlyuba Qaxxorova Panjiyevna***Kitob odamni –**bilag'on, suhbat topqir qiladi,**Yozib olish odati esa uni aniqlikka o'rgatadi. (F.Bekon)**Surxondaryo viloyati Denov tumani Axborot resurs markazi xorijiy bōlim mudiri*

Annotatsiya: Ushbu maqola “Denov ilm-fan va ta’lim markaziga aylanib bormoqda”deb nomlanib unda Denov tumanida amalga oshirilayotgan islohotlar, im-ma’rifat sarchashmalari uchun tashkil etilayotgan oliy o’quv yurtlari va Surxondaryo viloyati Denov tumani uchun prezidentning yangi qaror va farmoyishari haqida fikr yuritiladi.

Kalitso'zlar: Platforma, electrondarslik, infratuztilma, ijtimoiy-iqtisodiy, kadr, malaka, investitsiya, axborot texnologiya, kommunikatsiya.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida turli-tuman moddiy, madaniy va ma’naviy yodgorliklar ko’plab yaratilgan. Ana shunday yodgorliklardan biri kitobdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish lozimligiga alohida urg‘u bergan. Shu munosabat bilan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyatiga har tomonlama: foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, xalqaro hamkorlikka ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda yuksak ma’naviy qadriyatlarining qaror topishi axborot-kutubxona muassasalari oldiga shaxsga e’tiborni kuchaytirish, uning umummadaniy darajasini oshirish, ma’naviyatini yuksaltirish, odob-axloq jihatdan tarbiyalash kabi vazifalarni qo‘yadi. Hozirgi jamiyatda axborot-kutubxona muassasalari axborot olish, madaniy-ma’rifiy va ta’lim muassasasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda takidlab o‘ish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-apreldagi “Surxondaryo viloyatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish va yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-4681-sonli qarori asosida bu katta ishonch va umid belgisidir. Surxondaryo viloyatining shimoliy tumanlari aholisini rag‘batlantirish, Denov nomidagi tadbirkorlik va pedagogika institutining tashkil etilishi tarix sahifalariga bitilgan qadimiy o‘tmishimizning yangi ko‘zgisidir. Tumanda vohadagi yagona oliy ta’lim muassasasi sifatida XVI asrda qurilgan Said Otalik madrasasining me’moriy yodgorligi saqlanib qolgan. Oradan besh asr o‘tib, Denovda oliy o‘quv yurtining tashkil etilishi uchinchi Uyg‘onish davri sari qo‘yilgan ulkan qadamlardan biri bo‘ldi, desak, tarixiy adolat qaror topdi. . Oradan besh asr o‘tib, Denovda ushbu oliy o‘quv yurtining tashkil etilishi uchinchi Uyg‘onish davri sari qo‘yilgan ulkan qadamlardan biri bo‘ldi, desak, tarixiy adolat qaror topdi. Tashkil etilgan paytda 59 nafar professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ish boshlagan bo‘lsak, bugungi kunda 212 nafar malakali jamoani shakllantirdik. 2020-2021 o‘quv yilida bakalavriatning 16 ta yo‘nalishi bo‘yicha respublikaning 16 ta viloyati va respublikamizdan jami 1004 nafar yosh tahsil oldi va ularning soni 4000 nafarga yetdi. 2020-2021 o‘quv yilida talabalar uchun o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida 234 ta videodars, 655 ta taqdimot, 1957 ta elektron darslik, 697 ta ma’ruza matni va lug‘at, oraliq nazorat savollari, test savollari bilan test savollari. Bugungi kunda universitet platformadan foydalanuvchilar soni bo‘yicha mamlakatdagi eng yaxshi 20 talik qatoridan joy olgan. Milliy madaniyatni chuqur anglash, uning rivoji va evolyutsiyasini tahlil qilishda respublikaning universal fondga ega bo‘lgan axborot-kutubxona muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalari maqomini oshirish, tarmoq ilmiy axborot-kutubxona muassasalarining ilmiy va axborot salohiyatini, shuningdek,

axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog'ini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bolalar va ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar guruhi (imkoniyati cheklangan insonlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'p bolali oilalar va boshqalar) axborot-kutubxona muassasalarining alohida e'tiborini talab etadi. Mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jahon hamjamiyatiga kirish, O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborining ortishi axborot-kutubxona muassasalari zimmasiga mamlakatda bo'layotgan islohotlarga ko'maklashish, aholiga tezkor axborot taqdim etish bo'yicha qator majburiyatlarni yuklaydi. Yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi, axborot-kutubxona muassasalari tomonidan axborot tarqatish funksiyalarining amalga oshirilishi hamda axborot olish imkoniyatini ta'minlash avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish ko'lami va sur'atlariga bog'liqdir. Axborot-kutubxona sohasini isloh qilish axborot-kutubxona muassasalari me'yoriy-huquqiy bazasining zaifligi, axborot-kutubxona fondlarining jamlanishi va texnik jihozlanishi yetarli darajasida emasligi, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasining pastligi tufayli yuzaga keldi. 2020 — 2022- yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qonunda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020 — 2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida” 2020-yil 9-apreldagi PQ-4667-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: Quyidagilarni o'z ichiga oluvchi 2020 — 2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlarining manzilli dasturi: Bunda Surxondaryo viloyati hokimligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, manfaatdor davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari hamda tijorat banklari bilan kelishgan holda, dasturda nazarda tutilgan investitsiya loyihalarining qiymati va ish o'rinlari sonini saqlab qolish sharti bilan tayyorlangan loyiha hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda, Dasturning manzilli ro'yxatiga zarur hollarda, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020 — 2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida” 2020-yil 9-apreldagi PQ-4667-son qarori bilan tuzilgan Respublika ishchi guruhiga taklif kiritishi belgilab qo'yilishi haqida bildirilgani barchaga ayon.

¹ Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyati Denov tumani uchun yaratilayotgan sharoitlar, aholisi uchun qolaversa, aynan kutubxona markazida 20ta xodim ish faoliyatlarini olib borib kelajagimiz vorislari bo'lmish barkamlo avlodga o'zlarining kitobshunoslik ilmini tarqatayotganidan ajablansa arziydi, qolaversa, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ham o'zining behisob samarasini beribgina qolmay rivojlanayotgan viloyat va tumanlar ichida oldinda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Турсунов С., Курбонов А., Турсунов Н., Пардаев Т. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – Б. 98.; Равшанов Рустам Ҳожи, 1930 йилда туғилган, мақбара шайхи. – 2004 йил, июнь. – Сурхондарё вилояти Қизириқ тумани Такия ота қишлоғи.
2. Холмирзаев А. Сурхондарёнинг табаррук зиёратгоҳлари. – Т.: Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат, 2001. – Б. 33 (Бундан кейин: Холмирзаев А. Сурхондарёнинг табаррук зиёратгоҳлари).
3. Холмирзаев А. Сурхондарёнинг табаррук зиёратгоҳлари. – Б. 35–36.

¹ Surxondaryo Denov tumani prezident qarori.